

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA O'RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI  
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI**

**«KELISHILDI»**

Respublika o'rta tibbiyot va  
farmasevtika xodimlari  
malakasini oshirish va ularni  
ixtisoslashtirish markazi

mas'uliyat raiasi

M.T. Xakimova

03 2025 y.



**«TASDIQLAYMAN»**

Respublika o'rta tibbiyot va  
farmasevtika xodimlari  
malakasini oshirish va ularni  
ixtisoslashtirish markazi

direktori

L.X. Musadjanova

« 4 » 03 2025y.



**Bilimlar sohasi: Sog'liqni saqlash**

**«ZAMONAVIY JARROHLIKDA HAMSHIRALIK ISHI»**

(sikli bo'yicha malaka oshirish guruhlari uchun)

**O'QUV DASTURI**

(144-kredit)

**Toshkent – 2025 yil**

**TUZUVCHILAR:**

L.X.Musadjanova

Respublika o'рта tibbiyot va  
farmasevtika xodimlari  
malakasini oshirish va  
ularni ixtisoslashtirish markazi  
direktori,t.f.d. professor

U.U.Dostanova

RO'TFXMO va IM o'qituvchisi

N.A. Shoislomova

RO'TFXMO va IM o'qituvchisi

T.X.Boynazarov

ToshPMI klinikasi travmatologiya  
va ortopediya bo'limi shifokori

**TAQRIZCHILAR:**

Z.Z.Imamova

RO'TFXMO va IM o'quv ishlari  
bo'yicha direktor o'rinbosari

A.K. Ganiev

ToshPMI klinikasi travmatologiya va  
ortopediya kafedrasida dotsenti, t.f.n.

O'quv dasturi Respublika o'рта tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 4 » 0320.25.y.

bayonnoma № 2/1

Pedagogik kengash raisi



L.X.Musadjanova

O'quv dasturi direktorlar kengashida ko'rib chiqildi,muhokama qilindi,tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 5 » 0320.25.y.

bayonnoma № 2

## 1. Kirish

O‘zbekiston Respublikasida o‘rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida o‘rta tibbiyot xodimlari ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan.

Mazkur o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi “Tibbiyot va farmasevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4666-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish buyicha me’yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi” buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli “O‘rta tibbiyot va farmasevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo‘yiladigan Davlat talablari” ijrosini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

O‘quv dasturi modul tizimi asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘quv fanning mazmuni, uni o‘zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e’tiborga olingan. O‘quv dasturi “Zamonaviy jarrohlikda hamshiralik ishi” yo‘nalishining o‘quv rejasi asosida tayyorlangan bo‘lib, o‘rta tibbiyot xodimlari (jarrohlik bo‘limi hamshiralari)ni 144 kredit malaka oshirishlari uchun mo‘ljallangan. O‘quv dasturda fanlar modullarga ajratilgan bo‘lib, kasbiy rivojlanish moduli fanlar hamda, mutaxassislik fanlar bo‘yicha ta’lim olayotganlarning har tomonlama kasbiy, ma’naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to‘g‘risida ma’lumotlar kiritilib, tibbiy talimda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo‘limlarni ketma-ketligini ta’minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o‘quv materiallarini qamrab olgan.

### 1.1. Maqsad:

O‘qish natijasida “Zamonaviy jarrohlikda hamshiralik ishi” bo‘yicha jarrohlik bo‘limi hamshirasining mavjud kompetensiyalarni takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va kasbiy darajasini oshirish. O‘rta tibbiyot xodimlarni har tomonlama yetuk, mutaxassisliklari bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlariga erishish, shu bilan bir qatorda ularga hamshiralik ishi mohiyati, uning sog‘liqni saqlash tizimidagi o‘ziga xosligi, normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash, bemorlarni operatsiyadan oldingi va operatsiyadan keyingi davrlarda parvarishlash vaqtida har tomonlama yetuk, yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlariga erishish, malakali tibbiy yordam ko‘rsatish samaradorligini ko‘tarish, profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish bo‘yicha nazariy bilim va amaliy

ko'nikmalarni chuqurlashtirish va yangilash. Shu bilan bir qatorda ularga jarrohlik ishining mohiyati, normativ- xuquqiy hujjatlar bilan ishlash, aholiga sifatli akusherlik yordamini ko'rsatish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

### 1.2. Vazifalar:

- umumiy malaka oshirish o'quv jarayonini modulli tibbiy ta'lim tamoyili bo'yicha, zamonaviy, innovatsion, isbotlangan tibbiyotga asoslangan xalqaro ilmiy-amaliy ma'lumotlarni davlat talablariga mos holda tuzilgan o'quv dasturi bo'yicha tizimli tashkillashtirish va davolash profilaktika muassasalarida ko'rsatiladigan profilaktik, tashxislash va davolash uchun kerakli amaliy ko'nikmalarni mustaqil qo'llashga tayyorgarlikni shakllantirish;
- s
- zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida ishlash ko'nikmalarini yangilash va mukammallashtirish;
- aholi o'rtasida to'g'ri, ratsional ovqatlanish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash, o'sib kelayotgan avlodni sog'lomlashtirish tadbirlarini yangilash;
- jarrohlik ixtisosidagi stasionarlarda (bo'limlarda) shifoxona ichi infeksiyalari yuzaga kelishi va tarqalishining oldini olishni ta'minlaydigan tashkiliy, davolash-profilaktik, sanitariya-gigiyenik, epidemiyaga qarshi va dezinfeksiya qilish tadbirlarini olib borish;
- jarrohlik sohasidagi yangiliklar, zamonaviy apparaturalar yordamida bemorlarni tekshirishga tayyorlash, parvarishlash, salomatligini qayta tiklash va yanada mustahkamlash;
- bemorlar hayotiga xavf soluvchi holatlar va ularga olib keluvchi xavf omillarda shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni mukammallashtirish;
- favqulotda vaziyatlar, kechiktirib bo'lmaydigan holatlarni tahlil qila olish va kechiktirib bo'lmaydigan yordamni ko'rsatish qobiliyatini yangilash.

### 1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti):

O'quv dasturi davolash profilaktika muassasalari jarrohlik bo'limi hamshiralari malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, mutaxassisligini tasdiqlovchi hujjati bo'lgan tibbiyot hamshiralari uchun mo'ljallangan.

### O'quv dasturni o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi

- tibbiy etika va deontologiyani amalda qo'llay oladigan, notiqlik san'atining asoslarini tushungan yetuk mutaxassis bo'lishi;
- hamshiraning huquqiy meyorlarini, bemor huquqlari, roziligi, rad etishi, bemorlarning yoshiga nisbatan hususiyatlarini bilishi;
- tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko'nikmalarini amalga oshirish;
- o'zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo'lida aniq maqsadga puxta o'ylangan vazifalar asosida amaliy harakatlarni tashkil etish;

o

h

o

t

l

- jarrohlik hamshirasi faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olish;
- jarrohlik bo'yicha bilimlarini doimo boyitib borish, yangi axborotlarni o'rganish, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilish;
- kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish, sog'lom psixologik muhitni yarata olish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;
- kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish;
- o'z kasbiy salohiyati doirasida sanitar oqartuv, sanitar-gigiyenik, profilaktik, reabilitatsion, diagnostik va reanimatsion tadbirlarni, vrach ko'rsatmalarini amalga oshirish;
- shoshilinch holatlarda shifokorgacha tez tibbiy yordam choralari amalga oshirish.

### **1.5. Dasturning dolzarbligi:**

O'quv dasturining dolzarbligi amaliy tibbiy yordamning hayotiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, amaldagi standart va bayonnomalar, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarida kasalliklar dignostikasi, zamonaviy davolash va profilaktika choralari qo'llash, jarrohlik bo'limi hamshirasini aholiga hozirgi davr talablariga mos ravishda zamonaviy, malakali, sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi. O'quv dasturi amaliyotga asoslangan va muammolarga yo'naltirilgan yondoshuv asosida amaliy tibbiy yordamning zamonaviy ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'quv materiallari va jarayonlar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimining va mutaxassislikning o'ziga xos kasbiy ehtiyojlariga qaratilgan.

**1.6. Dastur hajmi:** 144 kredit (kuniga 6 kredit, haftada 36 kredit).

### **1.7. O'qish shakli:**

- kunduzgi - o'qish ishdan ajralgan holda
- on/offline, masofaviy / a'nanaviy o'qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda

**1.8. Mashg'ulotlarni o'tish tartibi:** Mashg'ulotlar "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi № 160 buyrug'i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Mashg'ulotlar 9<sup>00</sup> da boshlanib, 13<sup>40</sup> da tamom bo'ladi. Tushlik – 30 daqiqa.

**1.9. O'qish tugagandan so'ng beriladigan hujjat:** o'quv kursni to'liq o'zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga "Zamonaviy jarrohlikda hamshiralik ishi" bo'yicha umumiy malaka oshirganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

## TA'LIM NATIJALARI

ta'lim natijalaridan so'ng

takomillashtirilishi (yangilanishi) lozim bo'lgan kasbiy kompetensiyalar:

- m
- aholi o'rtasida to'g'ri, ratsional ovqatlanish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash, o'sib kelayotgan avlodni sog'lomlashtirish tadbirlarini yangilash;
- aholi o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, ko'p tarqalgan kasalliklarni oldini olish, dispanser kuzatuvini olib borishni tashkillashtirishni takomillashtirish;
- hamshiralik jarayoni orqali tibbiyot hamshirasi amaliyot standartlarini, hamshiraning kasallik tarixi va hamshiralik tashxisi, shuningdek hamshiralik parvarishini amalga oshirish ko'nikmasini rivojlantirish;
- jarrohlik soxasidagi yangiliklar bilan tanishib borish;
- davolash-profilaktika chora-tadbirlarini rejalashtirish va o'tkazish;
- shoshilinch holatlarda bemorlarga tez tibbiy yordam ko'rsatish;
- operatsiyadan oldingi davrda bemorlarga tashxis qo'yishda zamonaviy tekshirish usullaridan foydalanish, opereatsiyaga ruhan va jismonan tayyorlash;
- operatsiyadan keyingi davrda bemorlarni parvarishlash, hozirgi kunda qo'llanilayotgan yangi tibbiy texnologiyalarni qo'lash;
- zamonaviy tibbiy jihozlarni ishlatish, texnik ishlov berish va ta'mirlash ishlatishni tashkil etish vazifalari takomillashadi;
- hamshiralik ishini amalga oshirish va tashkil etishning ilg'or shakllari va usullarini ishlab chiqish, ommalashtirish, tajriba almashish hamda boshqa kasbiy faoliyat turlariga moslashtirish qobiliyatiga ega bo'ladi.

### 3.DASTUR MAZMUNI

3.1. "Zamonaviy jarrohlikda hamshiralik ishi" malaka oshirish yo'nalishi

o'quv rejasi

№	Modul va mavzular nomi	Auditoriya mashg'ulotlari				Attestatsiya
		Kredit	Nazariy mashg'ulo	Amaliy mashg'ulo	Seminar	
1.0	<b>Kasbiy rivojlantirish moduli</b>	<b>32</b>	<b>16</b>	<b>16</b>		
1.1	Modul.O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.	4	4	-		
1.2	Modul. Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4		
1.3	Modul. Infekzion nazorat.	6	4	2		
1.4	Modul.Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi	6	2	4		

1.5	Modul. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik	10	4	6		
<b>2.0</b>	<b>Mutaxassislik fanlar moduli</b>	<b>104</b>	<b>44</b>	<b>60</b>		
2.1.	Modul: O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi zamonaviy jarrohlik sohadagi me'yoriy hujjatlar. Aseptika va antiseptika.	12	6	6		
2.2	Modul: Zamonaviy jarrohlik sohada SOM (standart operatsiya muolajalari)ni amaliyotga samarali tadbqiq qilish. Bemorlarni zamonaviy tekshirish usullari. Og'riqsizlantirish.	12	6	6		
2.3	Modul: Qon ketish sindromi. Qon ketishni to'xtatish. Infuziya va transfuziya.	6	2	4		
2.4	Modul: Yurak, qon tomir kasalliklari va yurak jaroxatlarida hamshiralik ishi.	6	2	4		
2.5	Modul: Shikastlangan va jarohat olgan bemorlarni zamonaviy tekshirish usullari. Shikastlangan va jarohatlangan bemorlarga turli bog'lamlar qo'yish.	14	6	8		
2.6	Modul: Yallig'lanish sindromi. Mahalliy va umumiy infeksiyalarda hamshiralik parvarishi.	6	2	4		
2.7	Modul: "O'tkir qorin og'rig'i" sindromi. Me'da va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalligida bemorlarni zamonaviy tekshirish usullari va davolash, hamshiralik parvarishi.	12	6	6		
2.8	Modul: O'smalar sindromi. Bemorlarda zamonaviy tekshirish usullarini o'tkazish va davolash, hamshiralik parvarishi.	6	2	4		
2.9	Modul: Siydik ajratish faoliyatining buzilish sindromi. Zamonaviy tekshirish usullari, buyrak transplantatsiya amaliyotidan keyin hamshiralik parvarishi.	12	6	6		
2.10	Modul: Ko'z kasalliklarda zamonaviy tekshirish usullarini o'tkazish, hamshiralik parvarishini olib borish.	6	2	4		
2.11	Modul: Quloq, tomoq va burun a'zolari kasalliklarda zamonaviy tekshirish usullari, hamshiralik parvarishi.	6	2	4		

<b>2.12</b>	Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish.	6	2	4		
<b>3.0</b>	<b>Tanlov fanlar moduli</b>	<b>4</b>			<b>4</b>	
<b>4.0</b>	<b>Attestatsiya</b>	<b>4</b>				<b>4</b>
	<b>Jami</b>	<b>144</b>	<b>60</b>	<b>76</b>	<b>4</b>	<b>4</b>

## **“ Zamonaviy jarrohlikda hamshiralik ishi” kursi o‘quv modullarining mazmuni**

### **1.1.Modul.O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yaqin va istiqbolga mo‘ljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishidagi nutqida belgilab berilgan Sog‘liqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va to‘liq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar. Yangi O‘zbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo‘nalishlarning mazmun-mohiyati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining”Ayollar orasida onkologik kasalliklarni nazorat qilishga doir davlat dasturi to‘g‘risi”dagi hamda “Tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarining ahamiyati.Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirishdagi ustuvor vazifalar. “Aholi salomatligi-2030” milliy strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari,vazifalari va asosiy indikatorlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020-yil 12-noyabrdagi “Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4890-sonli shuningdek 2024 yil 5-sentabrdagi “Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 311-sonli Qarorlarining mazmun-mohiyati.

Davlat tibbiy sug‘urtasi-sifatli tibbiy xizmat kafolati.Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy qilish bilan bog‘liq islohotlar. Davlat tibbiy sug‘urtasining huquqiy asoslari, mexanizmlari va joriy etish bosqichlari haqida. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tibbiy sug‘urtasiga oid norma haqida.

### **1.2.Modul. Tibbiyotda raqamli texnologiyalar**

Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, Bemor ma'lumotlarini boshqarish, tibbiy statistik ma'lumotlarni to‘g‘ri tahlil qilish, tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo‘llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish.

Internet tarmog‘ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, mobil tibbiyot ilovalari va axborot xavfsizligi asoslarini, AI asosida diagnostika, chatbotlar va

virtual yordamchilardan foydalanishni bilishi kerak. “Tibbiyotda raqamli texnologiyalar” o‘quv modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- tibbiyotda raqamli texnologiyalar tushunchalari va tasavvurlarining umumiyligi;
- axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o‘rni;
- hozirgi zamonda informatikaning o‘rni va roli, ma’lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish.

### **1.3.Modul. Infekcion nazorat.**

Infekcion nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyasi, kelib chiqish

s  
a  
b  
a  
b  
l  
a

### **1.4.Modul. Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi.**

Sterilizatsiya bo‘limidagi yuritiladigan me‘yoriy hujjatlar.Sterilizatsiyani olib borish xonalaridagi aseptika va antiseptika tadbirlari, ularning talab darajasida bajarilish tartib va qoidalari. Antiseptikaning mexanik, fizikaviy, kimyoviy, biologik turlari. Antiseptik moddalarning guruhleri. Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan sterilizatsiya bo‘limlari turlari. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika havfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta‘minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar. Zararsizlantirish bo‘limlarida zamonaviy zararsizlantirish apparatlari, ular bilan ishlash. Zararsizlantirish usullari. Zararsizlantirish xonasi texnika xavfsizligi qoidalari. Dezinfeksiya vositalarini tayyorlashda xavfsizlik choralari va dezinfeksiya kositalari bilan zaharlanishda birinchi yordam ko‘rsatish. Avtoklavlarni turlari, tuzilishi, ishlash tartibi. Avtoklav ko‘rsatkichlarini ish jarayonida ahamiyati. Mehnatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etish. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika havfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta‘minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar.

### **1.5. Modul. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik**

Sog‘lom turmush tarzini tashkil etish asoslari.Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik qo‘llaniladigan ma‘yoriy hujjatlar. to‘g‘ri davolash usuli praktikasi amaliyotida shifoxonalikni infektsion va jinsiy o‘tqarilgan chora tadbirlarini amalga oshirishda tibbiy hodjatlarni va islohotlar kaseptika va antiseptika bilan ishlash tartibi. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik qo‘llaniladigan ma‘yoriy hujjatlar. to‘g‘ri davolash usuli praktikasi amaliyotida shifoxonalikni infektsion va jinsiy o‘tqarilgan chora tadbirlarini amalga oshirishda tibbiy hodjatlarni va islohotlar kaseptika va antiseptika bilan ishlash tartibi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi Zamonaviy jarrohlik sohadagi so'ngi qaror va buyruqlar, me'yoriy hujjatlarni va islohotlar. Mamlakatimizda zamonaviy jarrohlik yordamini tashkil qilish va o'rta tibbiyot xodimlarini o'rni, etika va diantologiyasi. Zamonaviy jarrohlikda infeksiya tushishni oldini olish choralari. Aseptika. Sterilizatsiyaning zamonaviy usullari. Xirurgik asbob-uskunalarning turlari, tuzilishining o'ziga xosligi, sterilizatsiyasi va saqlanishi. Bog'lov materiallari, uning asosiy xususiyatlari. Bog'lov materiallarini bikslarga joylash usullari, sterillikni nazorat qilishning zamonaviy usullari. Steril kiyim- bosh, qo'lqoplarni kiyish tartibi. Steril stolni tayyorlash. Tibbiyot xodimining shaxsiy gigiyenasi. Antiseptika. Antiseptika usullari. Asosiy va zamonaviy antiseptik dori vositalari. Antiseptik moddalarning ta'siri va qo'llanilishi.

## **2.2. Modul. Zamonaviy jarrohlik sohada faoliyat yuritayotgan o'rta tibbiyot xodimlarni SOM (standart operatsiya muolajalari) amaliyotga samarali tadbqiq qilish. Operatsiyadan oldingi va keyingi davrda bemorlarni zamonaviy tekshirish usullari. Og'riqsizlantirish.**

Zamonaviy jarrohlik sohada faoliyat yuritayotgan o'rta tibbiyot xodimlarni SOM (standart operatsiya muolajalari) amaliyotga samarali tadbqiq qilish. Operatsiyadan oldingi va keyingi davrda bemorlarni laborator va zamonaviy diagnostik tekshiruvlarga (laborator tekshirish usullari. rentgenografiya, endoskopiya, ultratovushli tekshirish, multiskaner kompyuter tomografiyasi-MSKT, magnit-rezonans tomografiya-MRT) tayyorlash. Bemorlarni rejali va shoshilinch operatsiyalarga tayyorlash, bolalar va keksalarni operatsiyaga tayyorlash xususiyatlari. Jarrohlik kasalliklarini. Bemorlarni shoshilinch va rejali holatda tekshirish usullari. Narkoz turlari va bosqichlari. Asosiy narkotik preparatlar va ularning xossalari. Umumiy va mahalliy og'riqsizlantirishdan keyin bemorlarni parvarishlash. Operatsiyadan keyingi davr. Bemorlarni operatsiya xonasidan transportirovka qilish, bemorlarni kuzatish va parvarish qilish. Bolalar va keksalarni operatsiyadan keyingi davrda parvarish qilish xususiyatlari. Operatsiyadan keyingi davrda bemorlarni ovqatlantirish. Operatsiyadan keyin davrda kuzatiladigan asoratlarda hamshiralik parvarishi.

## **2.3. Modul. Qon ketish sindromi. Qon ketishni to'xtatish. Infuziya va transfuziya.**

Qon ketish sabablari, turlari, belgilari, darajalari. Turli etiologiyali qon ketishlarda hamshira tashxisi, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, davolash va parvarish qilish xususiyatlari. Qon ketishida uchraydigan asoratlar va ularni oldini olish. Infuziya va transfuziya. Qon quyish usullari va metodlari. Bemorni qon quyishga tayyorlash. Bemorga qon quyilgandan keyin hamshira parvarishi. Veneseksiya va venepunksiya. Qon preparatlari va qon o'rnini bosuvchi suyuqliklar. Qon quyishda uchraydigan xatoliklar. Asoratlar va ularni oldini olish. OIV/OITS haqida tushuncha va tibbiyot hodimlarini OIV/OITSDan himoyalanihi. Respublikamizda donorlik ishini tashkil qilish.

## **2.4.Modul. Yurak, qon tomir kasalliklari va yurak jaroxatlarida hamshiralik ishi.**

Yurak, qon tomir va yurak nuqsoni kasalliklari, yurak transplantatsiya amaliyotini o'tkazishga ko'rsatma va moneliklarni o'rganish. Bemorlarga jarrohlik amaliyotini o'tkizishda laborator va zamonaviy diagnostik tekshiruvlarini tayyorlash va o'tkazish. Yurak, qon tomir kasalliklarida va yurak jaroxatlarida hamshiralik parvarishi olib borish. Bemorlarda operatsiyadan keying davrda asoratlarni oldini olish. Oyoq-qo'llarda qon aylanishning buzilish kasalliklari zamonaviy diagnostikasi va davosi. Evlo terapiya o'tkazishda hamshiralik yordami va keyingi parvarishi.

## **2.5.Modul. Shikastlangan va jarohat olgan bemorlarni zamonaviy tekshirish usullarini o'tkazish va davolashda hamshiralik parvarishi.**

### **Shikastlangan va jarohatlangan bemorlarga turli bog'lamlar qo'yish.**

Shikastlar tasnifi. Bemorlarni travmatologik tekshirishning hususiyatlari. Yumshoq to'qima shikastlari. Suyaklar sinishi va chiqishi. Travmatizm va uning oldini olish. Kalla-miya, ko'krak qafasi, umurtqa pog'onasi va chanoq suyaklari shikastlari. Mahalliy belgilari. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish xususiyatlari. Transport immobilizatsiyasi. Bemorlarni tekshirish va davolashning zamonaviy usullari. Bemorlarni parvarish qilish xususiyatlari. Jarohatlar sabablari, turlari, belgilari, davosi, bitishi. Shikastlangan va jarohat olgan bemorlarga yumshoq va qattiq bog'lamlar qo'yish. Zamonaviy Kangda Cast bog'lamlarini qo'yishda ishtirok etish va bemorlarni parvarish qilish. Qoqshol, gazli gangrena, quturish kasalliklarini oldini olish va hamshiralik parvarishi. Kuyish. Sovuq olish. Elektrotravma. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, transportirovka qilish, davolashning zamonaviy usullari, bemorlarni parvarish qilish xususiyatlari.

## **2.6.Modul. Yallig'lanish sindromi. Mahalliy va umumiy infeksiyalarda hamshiralik parvarishi.**

Xirurgik infeksiya tasnifi, tarqalish yo'llari, yallig'lanishning asosiy mahalliy belgilari. Mahalliy va umumiy xirurgik infeksiyalarning kelib chiqish sabablari, klinik belgilari, tekshirish, davolash va parvarishlashning o'ziga xos xususiyatlari. O'tkir va surunkali xirurgik infeksiyalar. Klinik belgilari. Bemorlarni tekshirish, davolash va parvarish qilish xususiyatlari. Jarrohlik bo'limlarida shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi bo'yicha tadbirlar.Bo'limdagi sanitariya-gigiyena tartibi. Bog'lash xonalarida shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi.

## **2.7.Modul. "O'tkir qorin og'rig'i" sindromi. Me'da va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalligi bemorlarni zamonaviy tekshirish usullari va davolashda hamshiralik parvarishi. Gastroplastika va me'dani bandajlash, shuntlash o'tkazish.**

"O'tkir qorin og'rig'i" sabablari, klinik belgilari, bemorlarni zamonaviy tekshirish usullari, birinchi tibbiy yordam, bemorni kasalxonaga transportirovka qilish. Operatsiyalardan keyingi erta va kechki asoratlarda bemorlarni parvarish qilish xususiyatlari. Qorin bo'shlig'i a'zolarining ochiq va yopiq shikastlari, klinik belgilari, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, kasalxonaga transportirovka qilish. Qorin bo'shlig'i a'zolarining o'tkir yallig'lanish kasalliklari sabablari, klinik belgilari, differensial diagnostikasi, tekshirish va davolashning zamonaviy usullari. Bemorni shoshilinch operatsiyaga tayyorlash. Bariatriya, me'dani

bandajlash, shuntlash operatsiya uchun ko'rsatma va moneliklar. Operatsiyadan keyingi davrda hamshiralik parvarishini olib borish va asoratlarni oldini olish. O't yo'llari va o't pufagi, appenditsit kasalliklarida zamonaviy tekshirish usullariga tayyorlash, shoshilinch yordam ko'rsatish. Dinamik va mexanik ichak tutilish turlari, sabablari, klinik belgilari, zamonaviy tekshirish usullari va davolash. Me'da va 12-barmoq ichak yarasining asoratlari. To'g'ri ichak kasalliklarining klinik belgilari, tekshirish usullari, bemorlarni operatsiyaga tayyorlash va operatsiyadan keyingi davrda hamshiralik parvarishini olib borish. "O'tkir qorin og'rig'i" bilan kasallangan bemorlarni parvarish qilish va ovqatlantirish xususiyatlari. Proktologik kasalliklarda zamonaviy tekshirish usullari, shoshilinch yordam ko'rsatish va hamshiralik parvarishi

### **2.8. Modul. O'smalar sindromi va bemorlarda zamonaviy tekshirish usullarini o'tkazish va davolashda hamshiralik parvarishi.**

O'smalar. Havfli va havfsiz o'smalar haqida tushuncha. Onkologik bemorlarni turli zamonaviy laborator diagnostik tekshiruvlarga tayyorlash: UTT, endoskopik, rentgenologik tekshiruvlar, pozitron-emission tomografiya (PET), magnit-rezonans tomografiya (MRT), sitologik va gistologik tekshiruvlar, Onkologik bemorlarni davolash tamoyillari. Onkologik bemorlarni parvarish qilish xususiyatlari. Hamshira deontologiyasi.

### **2.9. Modul. Siydik ajratish faoliyatining buzilish sindromi va kasalliklarda zamonaviy tekshirish usullari, buyrak transplantatsiya amaliyotidan keyin hamshiralik parvarishi.**

Urologik kasalliklarni etiologiyasi, klinik belgilari, shoshilinch yordam ko'rsatish. Qovuq va siydik chiqarish kanalining tug'ma nuqsonlari. Buyraklarning ochiq va yopiq shikastlari. Buyrak o'smalari. Qovuq va prostata bezi kasalliklari. Buyrak-tosh kasalligi. O'tkir siydik tutilishning sabablari, klinik belgilari, birinchi tibbiy yordam. Laparoskopik ureterolitotomiya, ko'rsatma va moneliklar, jarrohlik amaliyotiga tayyorgarlik, afzalliklari va kamchiliklari. Jinsiy olat kasalliklari. Klinik belgilari. Tashxislash. Bemorlarni tekshirishning zamonaviy usullari (ultratovushli tekshirish, multiskaner kompyuter tomografiya, rentgenografiya, endoskopiya)ga tayyorlash. Buyrak transplantatsiyasi, ko'rsatma va moneliklar, qo'llash usuli va kuzatilishi mumkin bo'lgan asoratlarini oldini olish va parvarish qilish xususiyatlari. Urologik bemorlarni parvarish qilish xususiyatlari.

### **2.10. Modul. Ko'z kasalliklarda zamonaviy tekshirish usullarini o'tkazish va davolashda hamshiralik parvarishi.**

Kasalxona va ambulatoriya sharoitida oftalmologik yordamni tashkil etilishi. Ko'rish a'zolari va ko'zning qo'shimcha qismlari kasalliklari haqida umumiy tushuncha. Bemorlarni zamonaviy tekshirish usullariga tayyorlash. Ko'z soqqasining mexanik jarohatlari, kimyoviy, termik, elektr ta'siridan kuyishida shoshilinch yordam ko'rsatish. Bemorlarni turli oftalmologik operatsiyalarga tayyorlash. Ko'z kasalliklarida hamshiralik parvarishini olib borish.

### **2.11. Modul. Quloq, tomoq va burun a'zolari kasalliklarda zamonaviy tekshirish usullarini o'tkazish va davolashda hamshiralik parvarishi.**

Otorinolaringolik kasalliklarining kelib chiqish sabablari, klinik belgilari, rivojlanishi, ularning organizmning boshqa a'zolari bilan bog'liqligi, asoratlari. Bemorlarni zamonaviy tekshirish va davolash usullari. Otorinolaringolik kasalliklari bilan kasallangan bemorlarda xamshiralik parvarishini olib borish.

Burun va yondosh bo'shliqlari kasalliklarini tekshirish va davolash usullari. Burun-halqum, og'iz-halqum, halqum-hiqildoq kasalliklari sabablari, klinik belgilari, tekshirish usullari, zamonaviy dori vositalarini qo'llash usullari va hamshiralik parvarishi. Tashqi, o'rta va ichki quloq kasalliklari haqida tushuncha. Tashqi, o'rta va ichki quloq kasalliklarini tekshirish usullarida ishlatiladigan zamonaviy asbob-uskunalar, bemorlarni davolash va hamshiralik parvarishini olib borish. Halqum va xiqildoq kasalliklarini tekshirishning zamonaviy usullari, bemorlarni davolash va hamshiralik parvarishini olib borish.

## **2.12.Modul. Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish.**

Favqulodda vaziyatlar haqida asosiy tushuncha.Favqulodda vaziyatlar,ularning sabablari, turlali.Tibbiy saralash va triaj asoslari.Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish bosqichlari va qoidalari. Ommaviy talofatlar holatida evakuatsiya va birinchi yordam ko'rsatish tamoyillari.Qon ketishni to'xtatish usullari.Yengil va og'ir kuyishlarda tibbiy yordam ko'rsatish.Elektr jarohatlari, ochiq va yopiq jarohatlar, sinishlar,uzoq muddat ezilishda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish.Hushdan ketish, kollaps, shok, koma haqida umumiy ma'lumot. Hushdan ketish, kollaps holatlarida bemorga yordam ko'rsatish.Shok holatlarida yordam ko'rsatish algoritmi (gipovolemik, anafilaktik, travmatik). Komatoz holatda bemorni baholash va dastlabki yordam ko'rsatish. Terminal holat bosqichlari. Klinik va biologik o'lim belgilari. CPR – yurak-o'pka reanimatsiyasining nazariy asoslari. Kattalar va bolalarda yurak massaji va sun'iy nafas berishni o'tkazish algoritmi.

## **DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK TA'MINOTI**

### **4.1. O'quv bazalari:**

Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Shifokorlar ko'chasi-2, 14-uy, davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

**Amaliyot bazasi:** davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

### **4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jixozlar ruyxati:**

Modul buyicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari.Multimediali jamlanma: slaydlar to'plami bo'lgan rrt ko'rinishli ma'ruzalar, SD diskda ko'rgazma materiallar, ekran, videofilmlar. Klinik amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash trening o'quv xonasi mulyaj, fantom, jihozlar, tarqatma materiallar, nazorat savollarining elektron ko'rinishi – 30 ta, vaziyatli masalalar- 20 ta va test savollari 300 ta, imtihon biletlari 25 ta. Mavzular bo'yicha turli jadvallar, tasviriy ko'rgazma va qo'llanmalar.

### **4.3. ADABIYOTLAR RUYXATI:**

#### **4.3.1. Qonunchilik va meyoriy-huquqiy xujjatlar:**

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi “Tibbiyot va farmasevtika ta’limi va ilm-fani tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 4310-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va yanada uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4666-sonli qarori.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.12.2018 yil PQ 4063-sonli “ Yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab –quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 noyabr PF 4887-sonli “Aholining sog‘lom ovqatlanishi va jismoniy faolligini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” farmoni

5.O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish buyicha me‘yoriy xujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi” buyrug‘i.

6.O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining me‘yoriy hujjatlari.

#### **4.3.2. Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. U.Y.Ergashev. “Xirurgik kasalliklar” Toshkent 2021 y

2. A.J.Hamrayev, A.V/Alimov, T.S.A‘zamxo‘jayeva “Xirurgiya va reanimatsiya asoslari” Toshkent 2017y

3.V.YE.Avakov, O.V. Churilova, A.M.Sharipov: “Rukovodstvo po okazaniyu pervoy neotlojnoj dovrachebnoy pomoshi.” 2010y.

4.Y.Allayorov, Y.Tojiboyev: “Favqulotda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari”. 2007 y. Toshkent.

5.Avtoklavlash va sterilizatsiyalashdatexnika xavfsizligi bo‘yicha o‘rta tibbiyot xodimlari uchun o‘quv uslubiy qo‘llanma. Tashkent.2009.y

6. G.M.Semenov: “Sovremenniye xirurgiyechskiye instrumenti ”. 2013 g.

7. N.V.Barikina, V.G.Zaryanskaya: “Sestrinskoye delo v xirurgii”. 2008 g

8. Bekmurodova M.: “Jarrohlik va reanimatsiya asoslarida hamshiralik ishi”. Toshkent . “Abu Ali ibn Sino” nashriyoti, 2003 yil.

9. “Ko‘z kasalliklari “. M.Xamidova, Z.Boltayeva. Toshkent 2016 yil.

10. M.S.Yusupova, G.Y.Nazarova, S.S. Shaimova: “Quloq, tomoq va burun kasalliklari”. Toshkent. “Talqin” nashriyoti. 2009 yil.

11. F.S.Yuldasheva, S.M.Aripova: “Ko‘z kasalliklari”. CHo‘lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, Toshkent 2007 yil.

#### **4.3.3. Elektron ta‘lim resurslari:**

1. O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi – [www.edu.uz](http://www.edu.uz)

2. O‘zR Sog‘liqni saqlash vazirligi - [www.minzdrav.uz](http://www.minzdrav.uz)

3. Medpoisk <http://www.medpoisk.ru/>

4. Russkiy meditsinskiy server <http://www.rusmedserv.com/>
5. Meditsinskiy katalog ROS-MEDIC <http://ros-medic.ru>
6. [www.adti.uz](http://www.adti.uz)
7. <http://www.medlinks.ru>

## **5.YAKUNIY ATTESTATSIYA**

### **5.1. Yakuniy attestatsiyaga quyiladigan talablar**

Yakuniy attestatsiya O'zbekiston Respublikasi Sog'liqnisaqlash Vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyruq 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini baholash to'g'risidagi Nizom» asosida o'tkaziladi.